

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

2.2.

**“TRENER-O‘QITUVCHINING PROFESSIONAL
KOMPETENTLIGI VA MAHORATI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish
yo‘nalishi:**

**Tinglovchilar
kontingenti:**

**Sport turlari bo‘yicha
trenerlar**

**Sport ta’lim muassasalari
trenerlari**

Toshkent – 2023

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

G.Yeldasheva - JTSBMQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti, p.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

G.Karimova - PROFI UNIVERSITY xususiy olim ta'lim muassasasining "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

A.Akmalov - JTSBMQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil -yanvardagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut Ilimiy Kengashning 20__yil __ _____da o'tkazilgan __ sonli qarori bilan nashr qilishga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur.....	3
II.	Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari	10
III.	Nazariy materiallar.....	16
IV.	Amaliy mashg'ulot materiallari.....	42
V.	Testlar to'plami.....	51
VI.	Glossariy.....	56
VII.	Adabiyotlar ro'yxati	62



ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Shu bois, trener-o'qituvchilarning aqliy salohiyatiga, ma'naviy qiyofasiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan.

Sport ta'limi muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan trener-o'qituvchilar mashg'ulotlarni optimal darajada tashkil etish shakllarini, barkamol shaxsni shakllantirishni, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunini amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz sport ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan trener-o'qituvchi va tarbiyachilarning pedagogik kompetensiyasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar XXI asr trener-o'qituvchisidan kasbiy-pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z sport turining nazariyasi va metodikasini chuqur bilishini, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Trener-o'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik kompetensiya va mahoratga ega bo'lish trener-o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy kompetensiyani oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish,

o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarda trenerning kompetentsiyalari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish.

Modulning vazifasi:

- zamonaviy talablarga mos holda sport ta'limi sifatini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan trener-o'qituvchilarning professional kompetentlik darajasini rivojlantirish;
- trenerning o'quv-mashg'ulot jarayonini boshqarishdagi mahoratini oshirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- kompetensiya tushunchasi va mohiyatini;
- pedagogning tayanch kompetensiyalarini;
- kompetensiya turlarini;
- kompetentlik va professional kompetentlik tushunchasini;
- professional kompetentlik sifatlarini;
- o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablarni;
- trener pedagogik mahoratining tarkibiy qismlarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- trenerning professional kompetentlik sifatlarini tahlil qilish;
- o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablarga rioya qilish;
- pedagogik texnika usullaridan foydalana olish;
- pedagogik qobiliyat turlarini o'rganish va tahlil qilish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- professional kompetentlik sifatlariga ega bo'lish;
- pedagogik texnika usullaridan samarali foydalana olish;
- pedagogik qobiliyat turlaridan o'quv-mashg'ulot jarayonlarida samarali foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi kerak.

Tinglovchi:

- professional kompetentligini o'z-o'zini baholash orqali tahlil qilish;
- o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishda pedagogik texnika va pedagogik qobiliyatlardan samarali foydalanish;
- professional kompetentligini muntazam ravishda oshirib boorish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan

o'zaro bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Sport ta'limini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, "Sport psixologiyasi", "Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda trenerlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahoratini rivojlantirishga doir professional kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Pedagogning tayanch kompetensiyalari	2	2	2			
2.	Sport turi bo'yicha trener faoliyatining vazifalari	2	2	2			
3.	Sport turi bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish va ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yo'llari	2	2		2		
	Jami:	6	6	4	2		

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu. Pedagogning tayanch kompetensiyalari

Reja:

- 1.1. Kompetensiya tushunchasi va mohiyati
- 1.2. Kompetensiya turlari

Kompetensiya tushunchasi. Pedagogning tayanch kompetensiyalari. Kompetensiya turlari. Kompetentlik tushunchasi. Professional kompetentlik. Professional kompetentlik sifatlari.

2-mavzu. Sport turi bo'yicha trener faoliyatining vazifalari

Reja:

- 2.1. Trenerning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablar
- 2.2. Trenerning pedagogik mahorati

Trener faoliyatining vazifalari. O'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablar. Trenerning pedagogik mahorati. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari. Pedagogik qobiliyat va uning turlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

3-mavzu. Sport turi bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish va ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yo'llari

Reja:

- 3.1. Sport turi bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari
- 3.2. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish yo'llari

Sport turlari bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish. Ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yo'llari. O'z-o'zini rivojlantirish yo'llari.

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati
Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari, turli elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



**MODULNI O'QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA'LIM METODLARI**

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar,
- tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tug'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Kompetensiya		
Kompetentlik		
Professional kompetentlik		
Mahorat		
Pedagogik qobiliyat		
Pedagogik texnika		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“FSMU” metodi

Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda yoki o'quv reja asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qullanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda Tinglovchilarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglavcholarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Bu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

Mashg'ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va mashg'ulot oxirida jamoa bo'lib ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4 bosqichi yozilgan tarqatma material tarqatiladi. Tarqatma materialda o'tilgan mavzu bo'yicha erkin fikr bildiriladigan savol yoziladi.

Namuna:

Savol: Sportchi shaxsining shakllanishiga tarbiya omili qayday ta'sir ko'rsatadi?

F - *fikringizni bayon eting.*

S - fikringizning bayoniga *sabab* ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab *misol* (dalil) keltiring.

U - fikringizni *umumlashtiring.*

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMUning 4 bosqichida o'z fikrlarini yozma bayon etadi. So'ngra tinglovchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU yozilgan katta qog'oz beriladi. Kichik guruhda har bir tinglovchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalashib, muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

“SWOT-TAHLIL” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength) kuchli tomonlari	W- (weaknes) kuchsiz tomonlari
O- (opportunitu) to'siqlar	D- (tnreat) imkoniyatlar

Namuna: Sport turlari bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S - Trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha sport maktabining kuchli tomonlari <ul style="list-style-type: none">•••	W- Trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha sport maktabining kuchsiz tomonlari <ul style="list-style-type: none">•••
O- Trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlar <ul style="list-style-type: none">•••	T - Trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha to'siqlar <ul style="list-style-type: none">•••

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” metodi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.



NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU.

PEDAGOGNING TAYANCH KOMPETENSIYALARI

Reja:

1.1. Kompetensiya tushunchasi va mohiyati

1.2. Kompetensiya turlari

Tayanch iboralar: *kompetensiya, pedagogning tayanch kompetensiyalari, kompetensiya turlari, kompetentlik, professional kompetentlik, professional kompetentlik sifatleri.*

1.1. Kompetensiya tushunchasi va mohiyati

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim va tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib echish mumkinligini unutmashimiz lozim.

2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi - ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, u 11 bob va 75 ta moddadan tashkil topgan.

Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning **7-moddasi** "Ta'lim turlari" deb nomlanib, unda quyidagi ta'lim turlari ko'rsatilgan:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya
2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim
3. Professional ta'lim
4. Oliy ta'lim
5. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim
6. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

Mazkur Qonunning 14-moddasi “Maktabdan tashqari ta’lim” to‘g‘risida bo‘lib, unda quyidagilar belgilangan:

“Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta’lim berish tartibi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi”.

O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim turlarining barchasida pedagoglar faoliyat olib boradi. Shu bois, “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi belgilab berilgan.

“Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” nomli 5-bobining **44-modda**si: “Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” deb belgilangan.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, sport maktablari- maktabdan tashqari ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport ta’limi muassasasida faoliyat olib borayotgan **trener**larga o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini sport bilan shug‘ullanish orqali mazmunli o‘tkazish, zahira sportchilar tayyorlash kabi vazifalar qo‘yilgan. Shu bilan birga, boshqa ta’lim muassasalarida ham o‘quvchilarning ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom bo‘lib tarbiyalanishlariga katta e’tibor berilmoqda.

2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunda trenerga quyidagi ta’rif berilgan: “trenerlik faoliyati

bilan shug'ullanish uchun malaka sertifikatiga ega bo'lgan hamda o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs".

Sport ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir trenerning kompetensiyaga ega bo'lishi muhimdir.

"Kompetensiya" tushunchasi lotincha **competere** degan so'zdan olingan bo'lib, **"loyiq"**, **"mos kelmoq"** ma'nosini beradi.

Pedagogika ensiklopediyasida "kompetensiya" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: "Kompetensiya (lotincha competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi".

Kompetensiya – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati.

Umuman olganda, kompetensiya **muayyan shaxs** doirasida o'rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo'lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo'lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, **tashkilot** miqyosida esa hamkasblarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to'lmay qolgan "bo'shliq"larni to'ldirishda asqotadi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni quyuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda **"tayanch kompetensiya"**lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida maktab bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o'z faoliyatini tashkil etishda

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, trener-o'qituvchi nafaqat ma'lum bir sport turi bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma va malakalari shakllantiruvchi ta'lim beruvchi, shu bilan birga u tarbiyachi hamdir. Trener-o'qituvchi ma'lum sport turini o'rgatish orqali o'quvchini tarbiyalaydi. U o'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish orqali ularni ham jismonan sog'lom, ham ma'nan yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi va ularda mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, intizomlilik va shu kabi boshqa sifatlarni ham shakllantiradi.

Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abduraxmon Jomiyning quyidagi fikrlarini havola etmoqchimiz: "Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi".

Ayrim trener-o'qituvchilar pedagogik kompetensiyaga ega bo'lishi uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida trener-o'qituvchi o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Trener-o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali trener-o'qituvchi, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik kompetensiyani o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

1.2. Kompetensiya turlari

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir trener-o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ta muhim jarayondir.

Kompetensiyani 4 turga bo'lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus.

Shaxsiy kompetensiya:

- ✓ insonparvarlik;
- ✓ bolalarni sevishi va mehribonlik;
- ✓ adolatli bo'lish;
- ✓ talabchanlik;
- ✓ bag'rikenglik;
- ✓ mas'uliyatlilik va h.k.

Kasbiy kompetensiya:

- ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- o'quv-trenirovka jarayonini boshqarish;
- turli musobaqalar tashkil etish;
- o'quvchilar bilimi va yutuqlarini baholash;
- o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;

- axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o'z bilimini doimiy takomillashtirish.

Umummadaniy kompetensiya:

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo'lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va h.k.

Maxsus kompetensiya:

- tegishli sport turining nazariyasi va metodikasini bilish;
- tegishli sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- tegishli sport turining texnikasini o'quvchilarga o'rgatish;
- tegishli sport turining taktikasini o'rgatish va h.k.

Pedagogikada "kompetentlik" atamasi ham ishlatiladi.

Kompetentlilik – *aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.*

Kompetentlilik – (lotincha "competens" – "layoqatli", "qobiliyatli") deganda faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish tushuniladi.

Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga Pedagogika ensiklopediyasida "kompetentlilik" atamasiga quyidagicha izoh berilgan: "Kompetentlilik – 1) ma'lum holat hususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi; 2) pedagogning barcha imkoniyatlardan

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

foydalana olishi, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi, o'z ishining ustasi bo'lgan, sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola oladigan pedagog layoqati."

Trener-o'qituvchining kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog'liq bo'ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo'lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik sport ta'lim muassasasi trener-o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni sport ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Ta'lim muassasasi trener-o'qituvchilar pedagogik jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular trener-o'qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Trener-o'qituvchi professional kompetentlikka quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

- pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
- maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;
- o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

- o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib borish;
- o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;
- pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, o'quvchilar orasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;
- murakkab va muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchini ruhlantirib borishi;
- trener-o'qituvchi va o'quvchi orasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish;
- ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Trener-o'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida professional kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, m'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda trener-o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki trener-o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning sport faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, trener-o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Professional kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga

osHIRISH uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Professional kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Professional kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Professional kompetentlikka ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Professional kompetentlik sifatlari. Quyida professional kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

3. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

4. **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, travma olish holatlari, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

5. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Mashhur biznes-murabbiy, SBA (*Student of Business Administration*) universiteti asoschisi Vladislav Shipilovning "Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalari"ga ko'ra ularga mos xususiyatlarini tahlil qilgan.

DARAJA	DARAJA TASNIFI
--------	----------------

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

5. Mohir (professional) mutaxassis (Mahoratni rivojlantirishning oliy (eng yuqori) darajasi)	O'z sohasida yuqori darajadagi professional, ekspert (avtoritet) darajasiga erishgan mutaxassis. Muayyan yo'nalish (kasb, ixtisoslik) bo'yicha malakalarni rivojlantirish, yanada takomillashtirish, boshqalarga o'rgatish kompetensiyalariga ega shaxs
4. Ilg'or mutaxassis (Mahoratni rivojlantirishning yuqori darajasi)	Yuqori malakaga ega bo'lgan, o'z ko'nikmalarni murakkab jarayonlar va nostandart holatlarda ham to'g'ri qo'llash tajribasiga ega mutaxassis
3. Tajribali mutaxassis (Mahoratni rivojlantirishning o'rta darajasi)	O'z sohasi bo'yicha yetarli bilim va malakaga, tajribaga ega bo'lgan va bu bilimlarini amaliyotga samarali qo'llay oluvchi mutaxassis
2. Rivojlanayotgan mutaxassis (Mahoratni rivojlantirishning past darajasi)	Muayyan malaka va ko'nikmalarni egallash jarayonidagi shaxs. Uning ahamiyati va mohiyatini anglagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilayotgan, ammo uni amaliyotda barqaror qo'llay olmayotgan shaxs
1. Malakasiz daraja (Mahoratni rivojlantirishning eng past darajasi)	Malaka darajasiga ega bo'lmagan, uning ahamiyati va mohiyatini tushunmagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmayotgan shaxs

Trener-o'qituvchilarning professional kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini va o'z faoliyatini

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli trener-o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Trener-o'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablaridan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar va o'yinlar, urf-odatlar va qadriyatlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida sport bilan bog'lagan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruriyatlarini o'z ichiga oladi.

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati
NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompetensiya nima?
3. Kompetentlik nima?
4. Trenerning kompetensiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. Professional kompetentlikka ta'rif bering.
6. Trenerlik faoliyatiga oid kompetensiya turlarini tushuntirib bering.
7. Trener-o'qituvchining professional kompetentlik sifatlariga nimalar kiradi?
8. Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini qanday bilish mumkin?
9. Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligini qanday farqlash mumkin?
10. Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalarini farqlab bering.

SPORT TURI BO'YICHA TRENER FAOLIYATINING VAZIFALARI

Reja:

2.1. Trenerning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablar

2.2. Trenerning pedagogik mahorati

Tayanch iboralar: trener faoliyati, o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarish, didaktik talablar, trenerning pedagogik mahorati, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat.

2.1. Trenerning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablar

Trener-o'qituvchi o'zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko'p mos keladigan o'quv-trenerovka jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish mashg'ulotning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l qo'ymaydi.

Mashg'ulot, yuqorida aytib o'tilganidek, o'quv-mashq jarayonini tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv-mashq amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'larini izlaydi, Bu sohada turli xil o'quv-yig'in mashg'ulotlari, tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosida o'tkazilayotgan sport musobaqalarida o'rta qo'yilayotgan ilg'or trener-o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulot jarayonlarini boshqarish quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir o'quv-trenerovka mashg'uloti ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir o'quv-trenerovka mashg'uloti mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir o'quv-trenerovka mashg'uloti professional sport bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir o'quv-trenerovka mashg'uloti xilma-xil usul, uslubiyot va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

5. O'quv-trenerovka mashg'ulotiga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir o'quv-trenerovka mashg'uloti trener-o'qituvchi va o'quvchi-sportchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. O'quv-trenerovka mashg'ulotida o'quv-mashq materiallarining mazmuniga oid sport jihozlari-asboblari va ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va trenajyorlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. O'quv-trenerovka mashg'ulotini butun guruh bilan yoppasiga olib borish bilan birga, har qaysi o'quvchi-sportchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish ham hisobga olinishi lozim.

9. Har bir o'quv-trenerovka mashg'ulotida o'quv-mashq mavzuning xarakteridan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport sohasining boy pedagogik-psixologik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Albatta, o'quv-trenerovka ishlarining tashkil qilishning zamonaviy shakl, usul va vositalarini qo'llash orqali trener-o'qituvchi o'quvchilarni o'quv ishlarining turli jarayonlariga jalb qiladi. Natijada o'quvchilarda ma'lum sportga oid bilimlar tizimi vujudga keladi va amaliy ko'nikma hamda malakalar bilan qurollanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo ba'zan eng ko'p natija beradigan usul va vosita ham ko'zlangan natija beravermaydi. Biz ba'zan ayrim trener-o'qituvchilardan men barcha metodik ko'rsatmalarga asoslanganda, o'quvchilar meni tushunmayaptilar, mashg'ulotda

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

meni tinglamay qo'ydilar, degan e'tirozlarni eshitib qolamiz. Buning sababi shundan iboratki, ba'zan o'qitishning ma'lum faol shakllari, usul va vositalari ham o'quvchilarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga ojizlik qiladi. Bunday sharoitlarda trener-o'qituvchi shaxsi, uning individualligi o'quvchilar bilan munosabati ma'lum darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, avvalo, trener-o'qituvchi o'zining shaxsiy fazilatlarini tarbiyalab takomillashtirib borishi, davr, vaziyat, imkoniyatga qarab ish tutishi lozim. Shuning uchun, trener-o'qituvchiining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Bir akademik soatlik o'quv-trenerovka mashg'ulotiga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi o'quv-mashq turlari deb yuritiladi.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan o'quv-trenerovka mashg'uloti turlari quyidagilardir:

- 1.** Yangi texnik yoki taktik bilimlarni bayon qilish mashqi.
- 2.** O'rganilgan texnik-taktik materiallarni mustahkamlash mashqi.
- 3.** O'quvchi-sportchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash mashqi.
- 4.** Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish mashqlari.
- 5.** Aralash mashq (yuqoridagi o'quv-mashq turlarining bir nechtasini birga qo'llanish).

Umuman olganda, har bir o'quv-mashq turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa trener-o'qituvchining o'quv-mashq materialini to'g'ri va samarali tushuntirishi(ko'rsatishi)ga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.

2.2. Trenerning pedagogik mahorati

Sport ta'lim muassasalari trener-o'qituvchilarining kasbiy mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

O'z kasbining sirlarini chuqur biladigan, o'z kasbining ustasi bo'lgan, dunyoviy va diniy bilimlarga ega, olimkor va tadbirkor, tashkilotchi va fidoiy, vatanparvar va mehribon, bag'rikenglik va xayrixohlik xislatlariga ega bo'lgan, bilganlarini boshqalarga o'rgatishga va metodik yordamga muhtojlarga yordamini ayamaydigan shaxslar haqida gapirilganda "U mahoratli va mehribon" degan so'zdan foydalaniladi.

Mahorat (*arab. – mohirlik, ustalik, epchillik*) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirilgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Trener mahorati – bu bolalar bilan ishlashni seva oladigan, har bir pedagog uchun zarur bo'lgan bilim berish va tarbiyalash san'atining takomillashgan va yuqori cho'qqisi.

Mahoratli pedagog – bu yuqori madaniyatli mutaxassis, o'z sohasini chuqur biladigan, yangiliklar bilan tanishadigan, bolalar psixologiyasini amaliy biladigan, ta'lim-tarbiya metodikasini yuqori darajada egallagan shaxs.

Pedagogik ensiklopediyada pedagogik mahoratga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pedagogik mahorat - o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis".

Pedagogik mahoratning tashkiliy qismlari uning mazmunini tashkil etadi. Trenerning shaxsiy va kasbiy sifatlari, uzviy bog'liqlikda shakllanib takomillashib boradi. Ular pedagogik faoliyat zaminida mustahkamlanar ekan o'quvchilar bilan

bo'lgan munosabatlarda, ularning qalbini bilishga intilishda, o'z shaxsiy va kasbiy faoliyatini muntazam nazorat va tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Mabodo trener-o'qituvchi pedagogik kasbni faqat o'quvchilarga sport turi bo'yicha bilim berish, ularni sportchi qilib tarbiyalashdan iborat deb bilsa, katta xatolikka yo'l qo'yadi. Shuning uchun u vaqti-vaqti bilan o'z ishlarini, muomalasini, munosabatlarini, xoh u ijobiy bo'lsin, xoh salbiy tahlil qilib borishga odatlanish kerak. Bulardan tashqari, kasbiy mahorat tizimida yana shunday masalalar, borki ularni bilmaslik, ularga e'tiborni qaratmaslik maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi, oqibat-natijada pedagogik mahoratni shakllantirish va uni takomillashtirish ishlariga sharoit yaratilmaydi.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi.

pedagog shaxsini **insonparvarlik** yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo'naltirilganligi;

kasbiy bilimlar, ya'ni mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish));

pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Ta'lim-tarbiya jarayonida **insonparvarlik** deganda, bolalarni seva olish, ularga o'z ota-onalaridek mehribonlik ko'rsata olish kabi mohir trenerning muhim shaxsiy fazilatlaridan biri tushuniladi. Trener-o'qituvchi har doim, hamma vaqt o'quvchilarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z o'quvchisi to'g'risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. O'quvchilar orasida uning "sevimli" yoki "yomon" ko'radigan tarbiyalanuvchilarni bo'lishi o'quvchida trenerga bo'lgan hurmatni so'ndiradi. Har

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

qanday bo'sh va past o'zlashtiradigan, "tarbiyasi qiyin" o'quvchi bilan ishlaganda trenerning vazifasi shundan iboratki, o'quvchidagi ana shu bilinar bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib o'quvchi o'tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog'i lozim. Trener-o'qituvchi shaxsiy fazilatlari tizimida pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo'nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta ro'l o'ynaydi.

Trenerning o'quvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik o'quvchilarni intizomga chaqiradi, o'z hulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yishga da'vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun trener-o'qituvchi talabning me'yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo'lib, bolaning kelajak hayoti, sport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni sportga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo'naltirilgan bo'lsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Trener-o'qituvchiga zarur bo'lgan **kasbiy bilimlar** tizimi o'z ichiga bir nechta bloklarni oladi. Bu eng avvalo, pedagogik faoliyatning xususiyatlarini, uning tuzilmasini, trener shaxsiga qo'yiladigan talablarni bilish. Trener-o'qituvchi unga ongli ravishda pedagogik jarayonni qurishga yordam beradigan konseptual bilimlar tizimiga ega bo'lishi kerak: ta'limning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini, uzluksiz ta'lim tizimida sport ta'limining o'rni va ahamiyatini, uning ko'p qatlamli tuzilmasini, uning rivojlanish tendensiyalarini, sportchilarni kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlar to'g'risida va h.k.

Undan tashqari, pedagog o'qitishning quyidagi psixologik-pedagogik asoslarini bilishi zarur bo'ladi:

- o'quv-terenirovka jarayonining mohiyati, uning qonuniyatlari va tamoyillarini;
- o'quv faoliyatining tuzilmasi va xususiyatlari, uni tashkil qilish usullarini;
- o'zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini;

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

- o'quv-trenirovka jarayonini loyihalash usullari va sport ta'limi mazmuni, o'qitishning mos modellari, shakl, metod va vositalarini, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini tanlash;

- o'quv-trenirovka jarayonini tashkil qilish usullari, natijalarni nazorat qilish va qayd qilish;

- o'z pedagogik faoliyati natijalarini tahlili qilish va tashhis qo'yish usullari.

Va nihoyat, trener-o'qituvchi muloqotning psixologik-pedagogik asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, tarbiya jarayonining nazariy asoslari va tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish usullarini bilishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi kasbiy bilimlarining o'ziga xosligi ularning kompleks xarakterda ekanligidir: pedagogik mahorat darajasi ko'pincha fan va amaliyotning turli sohalaridan bilimlarni yig'ish qobiliyati, o'z professional faoliyati va o'z-o'zini mukammallashtirish quroli qilib olishga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy ma'daniyat darajasini, ya'ni shaxsning pedagog imkoniyatlarni aks etadi.

Aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zni tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muammoli vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda **trener-o'qituvchining o'z hissiy (psixik)holatini boshqarish**, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixoxlik kafiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol' o'ynaydi. Bu mahorat pedagogikaning kasbiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishlarini ta'minlaydi, ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyish yordam b'eradi.

Pedagogik texnika shunday yig'indiki, u trener-o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvori, boshqacha aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchiga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

Pedagogik texnikaning aniq ifodalangan individual shaxsiy tarzda bo'lishi, pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika trener-o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayon *shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish* bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayoning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogning didaktik, tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko'nikmalar, qo'yiladigan talablarning texnologik usullari, pedagogik muloqotni boshqarish, jamoaning ijodiy ishlarni tashkil etish va boshqarish kiradi.

Trener-o'qituvchilarning tashqi qiyofasi ham uning obro'yining tarkib topishga ta'sir etadi. Trener-o'qituvchining saramjon-sarishtaligi, sport kiyimining ozodaligi, yaxshi odatlari, jismoniy qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taa'surot qoldiradi.

Trener-o'qituvchi qo'yidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) ortiqcha badqavoq bo'lmaslik;
- b) boshqalar nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik;
- c) hazil-mutoyibaga moyil bo'lish;
- d) xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: trener-o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligi hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni o'quvchining o'zida mohir trener-o'qituvchi shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik qobiliyat - pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar.

Qobiliyat – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan

individual psixologik xususiyati.

Pedagogik qobiliyatlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Didaktik qobiliyatlar.
2. Akademik qobiliyatlar.
3. Perseptiv qobiliyatlar.
4. Nutq qobiliyatlari.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyatlar.
7. Kommunikativ qobiliyatlar.
8. Kelajakni ko'ra bilish
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.
10. Konstruktiv qobiliyat.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, trener-o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini qo'yidagicha tasniflash mumkin:

1. **Didaktik qobiliyat**- bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda trener-o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. Trener-o'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. **Akademik qobiliyat** - barcha sohalar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan trener-o'qituvchi o'z sport turi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. O'quvchilarda ma'lum sport turi bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

3. **Perseptiv qobiliyat** - qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish

qobiliyati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday trener-o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat- ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, trener-o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli trener-o'qituvchining nutqi mashg'ulotda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. Trener-o'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish hamda turli tadbirlarni tashkil etish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z faoliyatini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo'lish trener-o'qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlarga (dadilliligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va h.k) shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlari - muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik taktning mavjudligi.

8. Kelajakni ko'ra bilish - insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Trener-o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali trener-o'qituvchi o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishni) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat - o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini samarali rejalashtirish va natijasini oldindan ko'ra bilish. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv-trenirovka mashg'ulotlari mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.


Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarining namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog'langan. Uyushqoqlik, qat'iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sport turlari bo'yicha trenerlik faoliyatini tushuntirib bering.
2. O'quv-trenerovka mashg'ulotiga qanday didaktik talablar qo'yiladi?

3. Mahorat va pedagogik mahorat tushunchalariga berilgan ta'rifni tushuntirib bering.
4. Pedagogik mahorat qanday tarkibiy qismlardan iborat?
5. Pedagogik qobiliyat nima?
6. Pedagogik qobiliyat turlarini tushuntirib bering.
7. Didaktik qobiliyatdan o'z faoliyatingizda qanday foydalanasiz?
8. Perseptiv qobiliyatdan o'z faoliyatingizda qanday foydalanasiz?
9. Pedagogik texnika va uning komponentlarini tushuntirib bering.
10. Shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish usullarining samarasini tushuntirib bering.



AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI

3-MAVZU: SPORT TURI BO'YICHA TRENERNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI

Reja:

3.1. Sport turi bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari

3.2. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish yo'llari

3.1. Sport turi bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari

Kasbiy mahorat, professionalizm, xususan, trener-o'qituvchilar professional xususiyatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan.

Trener-o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda trener-o'qituvchilarning professional kompetentligini bir necha komponent (yo'nalishlar)lardan iborat tizim sifatida, ya'ni trener-o'qituvchilarga shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin.

Trener-o'qituvchilarning professional kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va

faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Amaliy topshiriq:

Tinglovchilarga “Kasbiy rivojlanish shkalasi”ni baholovchi jadval tarqatiladi. Har bir tinglovchi o‘zining kasbiy kompetentlik sifatlarini ushbu mezonlar asosida baholaydi.

Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin.

Kasbiy rivojlanish shkalasi

№	Professional kompetentlik sifatleri	Shkala ko‘rsatkichlari									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ijtimoiy kompetentlik											
1)	Ijtimoiy va sport tashkilotlari va sub’ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish ko‘nikma va malakalariga egalik										
2)	kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik										
2. Shaxsiy kompetentlik											
1)	doimiy ravishda kasbiy o‘shishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish										
2)	kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olish										
3. Maxsus kompetentlik											
1)	psixologik kompetentlik										
2)	metodik kompetentlik, ya’ni pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish										
3)	informatsion kompetentlik										
4)	pedagogik faoliyatda o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish										

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

5)	yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish										
6)	ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish										
4. Texnologik kompetentlik											
1)	kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik										
2)	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv jihozlari, inventarlar)dan foydalanish malakasiga egalik										
5. Ekstremal kompetentlik											
1)	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, travma olingan vaziyatda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
2)	muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
JAMI											

Yuqoridagi jadval asosida har bir tinglovchi o'z darajasini baholagandan so'ng, viloyat yoki tumanlar bo'yicha kichik guruhlar shakllantiriladi.

Kichik guruhlarda "SWOT-TAHLIL" metodidan foydalanamiz.

"SWOT-TAHLIL" metodida mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart

Trener-o‘qituvchining professional kompetentligi va mahorati
tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Topshiriq: Sport turlari bo'yicha trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tahlilni ushbu jadval orqali amalga oshiring.

S-	Trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha kuchli tomonlari	W-	Trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha kuchsiz tomonlari
	<ul style="list-style-type: none">••••		<ul style="list-style-type: none">••••
O-	Trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlari	T-	Trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha to'siqlar
	<ul style="list-style-type: none">••••		<ul style="list-style-type: none">••••

Misol uchun, muayyan yo'nalishdagi qobiliyat va malakalarni rivojlantirish uchun esa aniq hayotiy bilim va tajribaga ega bo'lish talab etiladi.

Shundagina shaxs kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan yangi imkoniyatlardan foydalanish malakasiga ega bo'ladi.

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

Bu yo'lda, ya'ni trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha kuchsiz tomonlari va asosiy to'siqlar nimalardan iborat bo'ladi:

- qayerda, nima uchun va qanday harakat qilishni bilmaslik, rejadagi mavhumliklar va uning reallikdan uzoqligi;
- amaldagi ishda va umuman hayotda biror narsani o'zgartirishga tayyorlik (istak)ning yo'qligi;
- rejalashtirishda konstruktiv, amaliy jarayonlarning ustun kelishi va hissiy holatni inobatga olmaslik;
- faqat natijasi oldindan ma'lum va sinovdan o'tgan vazifalarni amalga oshirish hamda boshqa yangi tashabbus va loyihalarni hal qilish, zimmasiga olishdan qo'rqish;
- o'z xatti-harakatlarini baholash va natijalarni oldindan bashorat qilish malakasining yetishmasligi;
- o'z harakatlarining muvaffaqiyati to'g'risida fikrlarga qiziqishning yo'qligi.

Kichik guruhlar "Trenerning o'z professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tahlil"ni bajarib bo'lgandan so'ng, taqdimot o'tkaziladi va fikr-mulohazalar tinglanib, muhokama qilinadi.

3.1. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish yo'llari

Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Ta'limda pedagogning boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Bularning barchasi pedagogning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida pedagog ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida

Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati

ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi. Pedagogning faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma malaka hamda shaxsiy fazilatlarini egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish yo'llaridan asosiysi bu - trener-o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishidir.

O'z-o'zini rivojlantirish insonning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir.

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O'z-o'zini rivojlantirishni bir nechta yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- ✓ **Jismoniy rivojlanish** - tanani rivojlantirish, kuch, mushaklar, chidamlilik;
- ✓ **Fiziologik rivojlanish** - tananing turli xil tizimlarida (yurak-qon tomir, oshqozon, asab va boshqalar) foydali ta'sir;
- ✓ **Aqliy rivojlanish** - yangi tajriba va hissiyotlarni olish, idrok, fikrlash, xotirada va tasavvurlar bilan ish olib borish qobiliyatlari, ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ **Ijtimoiy rivojlanish** - martaba zinapoyaga ko'tarilish, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi o'z o'rniga ega bo'lish, ijtimoiy maqomga ega bo'lish;
- ✓ **Ma'naviy rivojlanish** - hayotning ma'nosini va uning maqsadini tushunish, axloqiy jihatdan intilishi, axloqiy jihatdan o'zini yaxshilash;
- ✓ **Intellectual rivojlanish** - yangi ma'lumot olish, yangi ko'nikmalarni va fazilatlarni ishlab chiqish, savodxonlikni oshirish, bilimlarning yangi yo'nalishlarini o'rganish;
- ✓ **Kasbiy rivojlanish** - kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'z-o'zini rivojlantirish uchun 5 qadam:

1. O'zgarishlarga ehtiyoj borligi to'g'risida fikr yuriting.
2. Kamchiliklaringizni toping / Rivojlanish uchun yo'nalishni aniqlang.
3. Kerakli kelajak tasvirini shakllantiring va maqsad qo'ying.
4. Kerakli natijaga erishish uchun mos keladigan yo'llarni toping va tanlang.
5. Maqsadlar asosida va tanlangan yo'llar bo'yicha harakat qilishni boshlang.

Amaliy topshiriq:

Tinglovchilarga "SWOT tahlili" natijalariga asoslangan holda o'zining "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqish vazifasi beriladi.

Individual rivojlanish dasturi – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi trener-o'qituvchi ham o'zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqarishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur.

Trener-o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;
- 3) mutaxassislik bilimlari;
- 4) didaktik malakalar;
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) psixikaning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 7) o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha vazifalar.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatleri va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, bilim ko'nikma va malakani aniq, xolis ifodalash mumkin.

TESTLAR TO'PLAMI

“Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati” moduli

bo'yicha test savollari

1. “Kompetentsiya” so'zining lug'aviy ma'nosi nima ?

- A. lotincha so'zdan olingan bo'lib, “loyiq” “mos kelmoq” degan ma'noni anglatadi*
- B. inglizcha so'zdan olingan bo'lib, “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi
- C. arabcha so'zdan olingan bo'lib, “mahorat” degan ma'noni anglatadi
- D. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “men o'rgataman, men o'qitaman” degan ma'noni anglatadi

2. Kompetentsiyaga berilgan ta'rifni toping?

- A. olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish qobiliyati *
- B. ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklarni qo'llash
- C. o'z sport turini chuqur bilish, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratish
- D. pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish qobiliyati

3. “Kompetentlilik” deganda nima tushuniladi?

- A. aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish *
- B. pedagogik jarayonlarni nazorat qilish
- C. o'zini o'zi rivojlantirish
- D. yangiliklarni tatbiq etish

4. “Profesional kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytiladi?

- A. kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi*
- B. yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni
- C. ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, muloqotga kirisha olish
- D. izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish

5. Professional kompetentlik qanday sifatlardan iborat?

- A. ijtimoiy, shaxsiy, texnologik, ekstremal, maxsus *
- B. shaxsiy, kasbiy, innovatsion, ekstremal, maxsus

- C. ijtimoiy, kommunikativ, kreativ, texnologik, maxsus
- D. texnologik, metodik, psixologik, ekstremal, maxsus

6. Psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ, kreativ kompetentliklar professional kompetentlikning qaysi sifatiga tegishli?

- A. maxsus kompetentlikka *
- B. shaxsiy kompetentlikka
- C. ijtimoiy kompetentlikka
- D. ekstremal kompetentlikka

7. “Ektremal kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?

- A. favqulodda vaziyatlarda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish *
- B. kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish
- C. ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish
- D. pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

8. Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalarini to'g'ri ketma-ketlikda belgilang.

- A. malakasiz → rivojlanayotgan → tajribali → ilg'or → professional *
- B. malakasiz → tajribali → rivojlanayotgan → ilg'or → professional
- C. rivojlanayotgan → malakasiz → tajribali → ilg'or → professional
- D. malakasiz → rivojlanayotgan → ilg'or → tajribali → professional

9. “Mahorat” so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A. arabcha so'zdan olingan bo'lib, “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik” degan ma'noni anglatadi *
- B. lotincha so'zdan olingan bo'lib, “loyiq” “mos kelmoq” degan ma'noni anglatadi
- C. inglizcha so'zdan olingan bo'lib, “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi
- D. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “men o'rgataman, men o'qitaman” degan ma'noni anglatadi

10. Biror bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi?

- A. mahorat *
- B. bilim

- C. ko'nikma
- D. malaka

11. “Trener mahorati” tushunchasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A. bolalar bilan ishlashni seva oladigan, har bir pedagog uchun zarur bo'lgan bilim berish va tarbiyalash san'atining takomillashgan va yuqori cho'qqisi *
- B. aniq vaziyatda kompetensyani namoyon qila olish qobiliyati, o'qituvchining mavjud kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat
- C. pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning xususiyatlari taxlili
- D. ijtimoiy pedagogik faoliyatida va axborotlarni to'plash, ularni saralab o'z o'rnida va me'yorida foydalanishi

12. Pedagogik mahorat qanday tarkibiy qismlardan iborat?

- A. insonparvarlik, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika *
- B. kasbiy bilimlar, nutq madaniyati, notiqlik, pedagogik texnika
- C. bag'rikenglik, muomala madaniyati, pedagogik takt, pedagogik texnika
- D. insonparvarlik, kasbiy bilimlar, nutq madaniyati, muomala madaniyati

13. Shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati qanday nomlanadi?

- A. qobiliyat *
- B. malaka
- C. mohirlik
- D. ko'nikma

14. Didaktik, akademik, perseptiv, nutqiy, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ kabi qobiliyatlar qanday qobiliyatlar turlariga kiradi?

- A. pedagogik qobiliyat *
- B. jismoniy qobiliyat
- C. aqliy qobiliyat
- D. psixologik qobiliyat

15. Konstpuktiv qobiliyat nimada namoyon bo'ladi?

- A. o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini samarali rejalashtirish va natijasini oldindan ko'ra bilish *
- B. o'quvchining kelajakda qanday inson bo'lishini tasavvur qilish qobiliyati
- C. o'quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olish qobiliyati

D. o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, ularni ruhlantirish qobiliyati

16. Kommunikativ qobiliyat nimada namoyon bo'ladi?

- A. muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati *
- B. o'quvchining kelajakda qanday inson bo'lishini tasavvur qilish qobiliyati
- C. oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntirish qobiliyati
- D. qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati

17. Perseptiv qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

- E. qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati *
- A. muomala va muloqot o'rnatish qobiliyati
- B. o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilish qobiliyati
- C. o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish qobiliyati

18. Didaktik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

- A. oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntirish qobiliyati *
- B. kishilar bilan bo'ladigan munosabatni yaxshilaydigan qobiliyat
- C. o'z harakatlarining oqibatini oldindan ko'ra bilish qobiliyati
- D. o'quvchilar jamoasini uyushtirish va ularni ruhlantirish qobiliyati

19. Akademik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

- A. barcha sohalar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik *
- B. muomala va samarali muloqot o'rnatish
- C. insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati
- D. bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildira olish

20. Pedagogik texnika qanday komponentlardan iborat?

- A. o'zini boshqara olish hamda shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish *
- B. o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish
- C. pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va uni amalga oshirish
- D. nutqiy qobiliyat va muomala madaniyatiga roiya qilish



GLOSSARIY

Akademik qobiliyat - barcha sohalar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan trener-o'qituvchi o'z sport turi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi.

Didaktik qobiliyat - oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olish. Bunda trener-o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, professional kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

Innovatsiya - yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati (inglizcha innovatsiya – kiritilgan yangilik, ixtiro).

Kelajakni ko'ra bilish - insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi hakidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni

tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. **Diqqatni**

taqsimlash qobiliyati - bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Trener-o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali trener-o'qituvchi o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishni) ham kuzatib boradi.

Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Kommunikativ qobiliyatlar - muomala va muloqot o'rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik taktning mavjudligi.

Kompetensiya - (lotincha *competo-erishyapman*, *munosibman*, *loyiqman*) – 1) muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi.

Kompetensiya - lotincha *competere* degan so'zdan olingan bo'lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma'nosini beradi.

Kompetensiya – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati.

Kompetentlik (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Konstruktiv qobiliyat - o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini samarali rejalashtirish va natijasini oldindan ko'ra bilish. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv-trenirovka mashg'ulotlari mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik (ingl. “create ” – yaratish, “creative ” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Mahorat (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Metodik kompetentlik– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash.

Muloqot– 1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilar o'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi.

Nutqiy qobiliyat - ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, trener-o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi.

O'z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda

kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi

Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati - o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi.

Pedagogik kreativlik (lot. “creatio” – “yaratish”) – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

Pedagogik mahorat – 1) o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; 2) ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondoshuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui

Pedagogik muloqot – pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiradigan suhbatlari

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar

Pedagogik texnika – pedagog tomonidan o'zlashtirilgan alohida o'quvchi va o'quvchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo'lgan BKM yig'indisi

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, BKM, professional kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan

shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

Perseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

Professional kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish

Qobiliyat – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

Tashkilotchilik qobiliyati - o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish hamda turli tadbirlarni tashkil etish iste'dodi.

Tashkilotchilik qobiliyati – pedagog tomonidan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish



ADABIYOTLAR RO'YXATI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1 Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5368-sonli farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5924-sonli farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son “Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli farmoni

III. Maxsus adabiyotlar

1. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.

2. Yoqubova D.M., Usmanova Sh.Sh. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi.

O'quv qo'lanma. – T.:Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti, 2020.- 200 b.

3. Андриади И.П. Основы педагогического мастерства / Андриади И.П.. – 2-э изд. – М.: НИТС ИНФРА-М, 2016. – 200 с. – ИСБН 978-5-16-011222-0

4. Жабаков В.Е. Педагогическое управление качеством подготовки специалиста физической культуры. Монография. – Челябинск: Изд-во Юж.-Урал. гос. гуман.-пед. ун-та, 2017. – 282 с. – ИСБН 978-5-906908-34-6

5. Крючкова Л.Н. Педагогическое мастерство тренера. Учебно-методическое пособие: — Саратов, 2011.-37 с.

6. Печеркина А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст]: монография / А.А. Печеркина, Э.Е. Симанюк, Э.Л. Умникова. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т., 2011. – 233 с. – ИСБН 978-5-7186-0473-3

7. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Равен Дж. Пер. с англ. – М.: Когито-Сентр, 2002. – 396 с. – ИСБН 5-89353-052-7

8. Сидоров А. А. и др. Педагогика спорта: Учебник для студентов вузов. — М.: Дрофа, 2000. - 320 с.

9. Холодов Ж.К., Кузнесов Б.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2003. - 480 с.

10. Ямалетдинова Г. А. Педагогика физической культуры и спорта: курс лекций: – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. - 244 с.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz/>
2. <http://eduportal.uz/>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://minsport.uz/ru>
5. <http://natlib.uz>

6. <http://olympic.uz/>
7. <http://sportedu.uz/>
8. <http://utube.uz/>
9. <http://uzedu.uz/>
10. <http://ziyonet.uz/>